

AKMALUDDIN MUHAMMAD BOBARTIYNING KALOM ILMIGA OID ILMIY MEROSI TASNIFI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15694145>

Rahmonova Muslima Murodillo qizi

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Islomshunoslik ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

+998909607261 muslimarahmonova371@gmail.com

Ilmiy rahbar: Palvanov O'ktam Bazarbayevich

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

"Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o'rganish

ICESCO" kafedrasi dosenti, PhD

Annotatsiya

Ushbu maqolada islom ilmlarining bir necha sohalarida beqiyos hissa qo'shgan olim Akmaluddin Muhammad Bobartiyning aqida va kalom ilmiga oid ma'lumotlar joy olgan bo'lib, olimning bu asarlari ilmiy tasnifi batafsil bayon etib o'tilgan.

Tayanch iboralar

"Sharh al-Vasiya", "al-Irshod", "Sharh al-aqida at-tahoviyya", "al-Kavashif al-burhaniyya", "Sharh al-Maqsid fi-l-kalom", "Sharh tajrid al-kalom".

Akmaluddin Muhammad Bobartiy ko'p sonli kitoblarning mualliflaridan biri bo'lib, uning asarlari turli ilm-fan sohalarida bo'lganligi yuqorida qayd etilganidek, olimning yuksak ilmiy salohiyat sohibi ekanligini tasdiqlaydi. Xususan, Imom Bobartiy aqida, ilm al-kalom, furu' al-fiqh, usul al-fiqh, tafsir, hadis, nahv va sarf ilmlari hamda ilm al-ma'aniy, ilm al-bayon kabi sohalarida ko'plab kitoblar yozgan bo'lib, quyida olimning kalom ilmiga oid asarlari bular keltirib o'tiladi:

1. Sharh al-Vasiya. Ahli sunna va-l-jamoa mazhabi ulamolari musulmonlar ommasiga sof Islom aqiydasini yetkazishda hormay myehnat qilib, o'z asarlari bilan islomiy ilmlar kutubxonasini boyitishga hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Bu muhtaram zotlar o'z kitoblarida mo'min-musulmon kishi e'tiqod qilishi lozim bo'lgan Alloh, payg'ambarlar, ilohiy kitoblar, qiyomat kuni, qazoi-qadar, farishtalar kabi ko'pgina aqida asoslari bilan birga, turli sabablarga ko'ra keyinroq paydo bo'lib, tortishuvga sabab bo'lgan xilofat, valoyat va shafolat kabi masalalarni ham bayon qilib berganlar¹¹⁹. Shuningdek, bu borada Imom Abu Hanifa (r.h)ning

¹¹⁹ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Aqiydatut-Tahoviya sharhining talhiysi. – T.: Hilol nashr, 2022. – B. 10.

“al-Vasiya” matni aqida ilmida yozilgan matnlardan biri bo‘lib, yuqorida zikri kelgan kitobi esa, Akmaluddin Muhammad Bobartiy tomonidan “al-Vasiya” matniga yozilgan mukammal sharhlardan biri hisoblanadi. Asar aqoid ilmiga oid mashxur manbalardan biri bo‘lib, unda asar muallifi tomonidan o‘z davrida bahsli masalalarga sabab bo‘lgan, sunniylar hamda boshqa fiqhalar orasida keng tarqalib, ixtilof mavzusiga aylangan ba’zi aqidaviy masalalar bo‘yicha o‘z fikrlarini bayon qilib, dalillar asosida ko‘rsatib asoslab bergan. Imom Abu Hanifaning umumiy holatda o‘zning as‘hoblariga, shuningdek, Bobartiy sharh qilgan “al-Vasiya”dan tashqari, xos holatda ulardan ba’zi birlariga qilgan “vasiyatnoma”lari ham bor¹²⁰. Akmaluddin Bobartiy Imom “al-Vasiya”ga sharh yozgan olimlardan biri bo‘lib, u bu sharhni “Sharh al-Vasiya” deb nomlagan.

“Sharh al-Vasiya” o‘zining muxtasarligi, shuningdek, kitob tili va lug‘atining kitobxonga oson tushunilishligi, jumalarning sodda tuzilganligi, asarni sharhlashda boshqa ulamolarning qavllarini keltirilganligi hamda asosli naqliy dalillar bilan boyitilganligi bilan ham ajralib turadi.

Bobartiy “al-Vasiya” kitobiga sharh yozishga kirishganida o‘z so‘zini barcha ulamolarning o‘z asarlarini boshlagan usulda ya’ni, Alloh taologa hamdu sano aytish, uning suyukli rasuli va nabiyi Muhammad Mustafo (s.a.v)ga va u zotning oila a‘zolari hamda sahobayu kiromlariga salot-u salovotlar aytish bilan boshlaydi. U shunday deb yozadi: “Qachonki hanafiy mazhabining rahnamosi bo‘lmish Abu Hanifa No‘mon ibn Sobit (r.h)ga nisbat berilgan “al-Vasiya” kitobini ko‘rganimda, musulmonlar e‘tiqod qilishi kerak bo‘lgan masalalar ushbu kitobda mujassamlashtirilganligining guvohi bo‘ldim.”¹²¹.

Akmaluddin Bobartiy “Sharh Vasiya Imom Abu Hanifa” kitobining muqaddimasida asarning sharhini yozishlikdagi o‘zlaridan tanlagan uslub borasida biroz so‘z yuritib, shunday deydilar: “Men ko‘zlangan narsadan tashqariga chiqmaslikni o‘zimga shart qilib oldim, toki kitobxonning qabul qilish salohiyatiga yengil va oson bo‘lsin. Shuningdek, Alloh taolodan uni qiyomat kunida men uchun mulk qilishini va mening zararimga emas, balki manfaatimga guvohlik qilishini, uning sharofatidan meni solihlar va axyorlar bilan birga hashr qilishini so‘rayman. Zero U eng yaxshi Vakildir”¹²².

Bu asarni Bobartiy Misr Mamluklar hukmronligi davrida Qohira hokimi bo‘lgan amir Sayfuddavlagaga (vaf. 802/1399) bag‘ishlagan. Asar muqaddimasida muallif o‘zini “al-Bayburtiy” nomi bilan tanishtiriladi. Bu imlo uning nisbasi

¹²⁰ Akmaluddin Muhammad Bobartiy. Sharh at-Talhis. – Tripoli: Jamahiriyyatul arobiyya al-labiyya ash-sha’biyya al-istirokiyya, 1983. – B. 5.

¹²¹ Akmaluddin Muhammad Bobartiy. Sharh at-Talhis. – Tripoli: Jamahiriyyatul arobiyya al-labiyya ash-sha’biyya al-istirokiyya, 1983. – B. 49.

¹²² Akmaluddin Muhammad Bobartiy. Sharh at-Talhis. – Tripoli: Jamahiriyyatul arobiyya al-labiyya ash-sha’biyya al-istirokiyya, 1983. – B. 49-50.

haqidagi bahslarga oydinlik kiritib, uning boyburtlikligini ko'rsatadi. Bobartiyning "Vasiya"ga sharhi "Aqida at-Tahoviy"ga qilgan sharhiga qaraganda ko'proq jadal usulida yozilgan. Bunga nazar tashlanadigan bo'lsa, sharhlovchi matn ruhiga mos til va usul qo'llangan yoki ikki tafsir o'rtasida o'tgan qirq yil davomida asta-sekin teologik usulga o'tgan deyish mumkin¹²³. Asar hozirgi kunda Islom universitetida 1445 raqami ostida xalq kutubxonasining qo'lyozmalar bo'limida saqlanadi va ushbu qo'lyozma 26 betdan iborat¹²⁴.

2. Al-Irshod. Bu kitob Abu Hanifa (r.h)ning "al-Fiqh al-akbar" asariga yozilgan sharh hisoblanadi¹²⁵. Kitobning muqaddimasida Imom Bobartiy shunday deb yozadi: "Ushbu qo'lingizdagi kitob bir muqaddima, ikki bob va Abu Hanifa (r.h)ning aqidasi asoslangan qisqacha xulosani o'z ichiga olib, u adashgan firqalar uchun hidoyat, olimlar uchun esa, nasihat yo'li vazifasini bajaradi. Men esa, uni "Irshod" deb nomladim. Alloh taolo uni qiyomat kunigacha hifzu himoyasida saqlashidan hamda insonlar undan man'faat olishlaridan umidvorman". "Al-Irshod" tavhid bobi bilan boshlanib, olim unda quyidagilarni keltirib o'tadi: "Bilingki, Alloh taolo insonlar va jinlarni O'ziga ibodat qilishlari uchun yaratgan, ibodatning mohiyati va ko'lamini aql bilan idrok etib bo'lmaydi. Xullas, Alloh taolo ularga nima farz ekani, Allohni qanday sevishni, mashqatlarga qanday sabr qilib, tirishqoq bo'lishni o'rgatadigan, go'zal xulqli va solih amalli kishilarga jannat xabarini beradigan elchilarni – rosullarni yubordi..." (2-ilovaga qarang)

3. Sharh tajrid al-kalom. Bu asar Nosiruddin Tusiy (vaf. 672/1274 y.)ning "Tajrid al-aqid" nomli kitobiga Muhammad Bobartiy tomonidan yozilgan sharh kitob bo'lib, olim unda e'tiqodiy masalalardagi ochiq-oydin dalillarni jamlab, ahli sunna va-l-jamoa ulamolarining, xususan, moturidiylik va ash'ariylik yo'lida bo'lgan aqidaviy ta'limotlarni bayon qilgan hamda bu oqimlarning botil qarashlarini rad etgan. U chuqur falsafiy dalillarni keltirishdan tiyilib, ifoda uslubida haddan ziyod mufassallik va qisqalik o'rtasidagi mu'tadil yo'lni tanlagan. Natijada ushbu kitob aqida va kalom sohasida oldin yozilgan kitoblar ichida eng mukammallaridan biriga aylanib, muhim manba bo'lib xizmat qilgan¹²⁶.

4. Sharh al-Maqsid fi-l-kalom. Imom Babartiyning "Sharh al-Maqsid" asari kalom ilmidagi o'rta darajadagi, ammo keng qamrovli asarlardan biri hisoblanadi. Asar kalom ilmining eng muhim mavzularini o'z ichiga olib, uni mutaaxxir olimlarning yetuk olimlaridan Akmaluddin Babartiy shunday ravshanlik bilan

¹²³ Babertin, Vasiyye ve Tahavi akidesi serhlerinde "İman ve istitaat" hakkındaki görüşleri. Arif Aytekin. C.Ü. İlahiyat Fakültesi Dergisi 2012, Cilt: XVI, Sayı: 2 Sayfa: 639.

¹²⁴ Akmaluddin Muhammad Bobartiy. Ar-Rudud va-n-nuqud sharh muxtasar ibn al-Hojib. – Ar-Riyod: Maktaba ar-Rushd, 2005. – B. 52.

¹²⁵ Mustafu ibn Abdulloh Hoji Xalfa. Kashf az-Zunun. – Bayrut: Lubnan, 2009. – B. 1287.

¹²⁶ Safinatulnajat.com. Rasmiy sayt. URL: <https://safinatulnajat.com> (Murojaat sanasi: 6.07.2025)

sharhlaganki, bu sharh muhaqqiqlar orasida yuqori o'ringa ega bo'lgan. Bu asar asli "al-Maqsid" nomi bilan mashhur bo'lgan muxtasar bir matn bo'lib, unda kalom ilmining asosiy masalalari qisqa va lo'nda tarzda jamlangan. So'ngra u Babartiy tomonidan mufassal sharhlangan. Shuningdek, asarning Doktor Muhammad Akram tomonidan qilingan tahqiqi mukammal ilmiy izohlar va muhim qo'lyozmalarga asoslangan noyob nashr hisoblandi¹²⁷.

5. Al-Kavashif al-burhaniyya. Bu kitob kalom ilmi borasida yozilgan asar bo'lib, "al-Mavaqif" asarining sharhi hisoblanadi. "An-Nuqud va-r-rudud" asarining kirish qismida ham bu haqida ma'lumot berib o'tilgan¹²⁸.

6. Sharh al-aqida at-Tahoviyya. Aqida masalasi muhim bo'lgani, bu masalada mo'min-musulmonlarni adashtirishga urinishlar ko'p bo'lganligi sababli aqida ilmining musulmonlarga dars qilib o'qitilishi yo'lga qo'yildi. Har bir musulmon yaxshi o'zlashtirib, iloji bo'lsa yodlab olishi lozim bo'lgan muxtasar matnlar bitildi. Aynan shu yo'l bilan musulmon ommasi aqidasi sof holatda ushlab turishga harakat qilindi¹²⁹. Xuddi shuningdek, ahli sunna va-l-jamoa ta'limotiga oid bo'lgan kitoblardan yana biri bu Abu Ja'far Tahoviy¹³⁰ning "Aqida at-Tahoviya" kitobi bo'lib, aqida borasidagi mukammal matnlardan biri hisoblanadi. Shu bois, ham Sharq va ham G'arb diyorlarida mashxur bo'lib, ko'p sonli ulamolar ushbu kitobni o'qib-o'rganishgan hamda shu kitobdan istifoda qilgan holatda talabalarga saboq berishgan¹³¹. Shuningdek, Akmaluddin Muhammad Bobartiyning "Sharh al-aqidat at-Tahoviya" asari O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi huzuridagi Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan o'zbek tiliga ilmiy-izohli tarjima qilingan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Akmaluddin Muhammad Bobartiy ko'p sonli asarlarning mualliflaridan biri bo'lib, ayniqsa, allomaning asarlari kalom ilmi borasida moturidiya ta'limotining shakllanishi va rivojlanishida muhim bir manba bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, Imom Bobartiyning turli ilm-fan sohalarida qalam tebratganligi uning yuksak ilmiy salohiyat sohibi ekanligini tasdiqlaydi. Olimning asarlari bugungi kunimizda turli xil aqidaviy oqimlarga raddiya berishlikda, shuningdek, yosh avlodni sog'lom e'tiqod asosida tarbiyalashda, dinimizga xavf solayotgan turli xurofotlarga qarshi kurashishlikda muhim ahamiyat kasb etadi. Olimning asrlarida islom aqidasi asosiy tamoyillari aniq

¹²⁷ darannor.com. Rasmiy sayt. URL.: <https://darannor.com/product/> (Murojaat sanasi: 6.07.2025)

¹²⁸ Akmaluddin Bobartiy. Sharh Vasiya Imam Abu Hanifa. – Ummon: Dor al-fath, 2009. – B. 13.

¹²⁹ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Aqiyadatut-Tahoviya sharhining talhiysi. – T.: Hilol nashr, 2022. – B. 10-11.

¹³⁰ Abu Ja'far Ahmad Tahoviy (hijriy 229-321/milodiy 843-933). To'liq ismi Abu Ja'far Ahmad ibn Muhammad ibn Muhammad Saloma ibn Salama Azdiy Hajriy Tahoviy bo'lib, Misrning yuqori qismidagi Tahiya, "Kitob al-ansob" muallifi Sam'oni (1113-1167) fikricha esa Misrning pastki taqrafidagi Taho qishlog'ida tug'ilgan. (Ahlisunna.uz. Murojaat sanasi: 22.02.2025)

¹³¹ Akmaluddin Muhammad Bobartiy. Sharh aqida at-Tahoviyya. Bayrut: Lubnan, 2009. – B. 5.

va ravshan bayon etilgan bo'lib, bu ularni keng auditoriyaga yetkazishda muhim rol o'ynagan. Uning ilmiy faoliyati va ta'limotlari islom aqidasi zamonaviy muammolar bilan bog'lab, yosh avlodga sof e'tiqodni shakllantirishda o'rni beqiyos.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Aqiydatut-Tahoviya sharhining talhiysi. – T.: Hilol nashr, 2022. – 446 b.
2. Akmaluddin Bobartiy. Sharh Vasiya Imam Abu Hanifa. – Ummon: Dor al-fath, 2009. – 155 b.
3. Akmaluddin Muhammad Bobartiy. Sharh aqida at-Tahoviyya. Bayrut: Lubnan, 2009. – 365 b.
4. Akmaluddin Muhammad Bobartiy. Sharh at-Talhis. – Tripoli: Jamahiriyyatul arobiyya al-labiyya ash-sha'biyya al-istirokiyya, 1983. – 155 b.
5. Akmaluddin Muhammad Bobartiy. Ar-Rudud va-n-nuqud sharh muxtasar ibn al-Hojib. – Ar-Riyod: Maktaba ar-Rushd, 2005. – 853 b.
6. Mustafo ibn Abdulloh Hoji Xalfa. Kashf az-zunun. – Bayrut: Lubnan, 2009. – 1287 b.
7. Babertî'nin, Vasiyye ve Tahavî akîdesi şerhlerinde “İman ve istitaat” hakkındaki görüşleri. Arif Aytakin. C.Ü. İlahiyat Fakültesi Dergisi 2012, Cilt: XVI, Sayı: 2 Sayfa: 639.
8. <https://safinatulnajat.com>
9. <https://darannor.com/product>